

TIL VA MADANIYAT ALOQASI (LINGUOCULTUROLOGY)**Khudoykulov Otabek Bohodir ugli****Supervisor: assistant teacher at Zarmed University Foreign philology department****Abduxalimova Ruxshona****Student: Philology and teaching languages 2nd year student at Zarmed university****<https://doi.org/10.5281/zenodo.19642097>**

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi madaniyat va tilni o'rganishda umumiy til topishga, shuningdek, linguokulturologiyaning asosiy tamoyillarini tushunishga yordam beradi. Bu o'zgarish ko'plab madaniyat va tilni o'rganayotgan odamlarni qamrab oladi. Linguokulturologiya sohasida mentalitet nima ekanligini va uni qanday tushunish mumkinligini bilish mumkin. Ushbu tezis til orqali madaniyatni o'rganish va rivojlantirish yo'llarini aniqlashning bir qismi sifatida xizmat qiladi. Unda xalqning urf-odatlarini, qiziqarli va foydali qadriyatlar, maqollar va maslahatlar keltiriladi.

Kalit so'zlar:til, madaniyat, linguokulturologiya, milliy mentalitet, qadriyat, urf-odat, madaniy meros, til birliklari, xalq dunyoqarashi

Til — bu madaniyatning eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Agar madaniyat insonning fikrlashi va ruhiy dunyosiga yaqin bo'lsa, bu jamiyatning rivojlanishini va madaniy hayotining tezlashishini ta'minlaydi. Til jamiyatning tarixiy tajribasini, an'analari va dunyoqarashini aks ettiradi.

Til nafaqat aloqa vositasi, balki madaniyatni saqlovchi va uni avloddan-avlodga yetkazuvchi asosiy vositadir. Maqollar, iboralar, milliy so'zlar hamda murojaat shakllari orqali xalqning hurmat, o'dob va mehmondo'stlik kabi qadriyatlarini namoyon bo'ladi. Masalan, o'zbek tilida kattalarga hurmat bildirish uchun qo'llaniladigan "siz" shakli yoki hurmat ko'pligi milliy mentalitet bilan bog'liq.

Til va madaniyat o'rtasidagi uyg'unlik yangi dunyoviy bilimlarni o'rganishda muhim vosita hisoblanadi. Linguokulturologiya fanida til faqat aloqa vositasi sifatida emas, balki milliy mentalitet, qadriyat va madaniyatni aks ettiruvchi hodisa sifatida tahlil qilinadi. Til birliklari, frazeologizmlar, maqollar va metaforalar orqali xalqning dunyoqarashi, urf-odatlarini va madaniy kodlari ochib beriladi. Shu tarzda, til va madaniyatning bahamjihatligi orqali olimlar yangi bilimlar, madaniyatlararo tushunchalar va jamiyatning ma'naviy hayotini chuqurroq anglash imkoniga ega bo'ladilar.

Linguokulturologiya — bu til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganadigan fan. Ushbu fan til orqali xalqning madaniyati, an'analari, qadriyatlarini va dunyoqarashini tushunishga yordam beradi. Linguokulturologiya so'zlar, iboralar, maqollar, aforizmlar va murojaat shakllari kabi lingvistik elementlarni tahlil qiladi. Shu orqali biz xalqning madaniy xususiyatlarini ham bilib olamiz. Hozirda til antropotsentrik yondashuv bilan o'rganilib, inson tafakkuri, dunyoqarashi va madaniy qadriyatlarini aks ettiradi. Shu bilan birga, linguokulturologiya boshqa fanlar bilan integratsiyalashib, milliy mentalitet va madaniy stereotiplarni chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi. Globalizatsiya jarayonlari til orqali madaniyatlararo kommunikatsiyani dolzarb masalaga aylantirgan. Konseptlar, frazeologizmlar va metaforalar millatning dunyoqarashi va qadriyatlarini ochib beradi, zamonaviy texnologiyalar esa til va madaniyat bog'liqligini keng miqyosda o'rganishga yordam beradi. Shunday qilib, linguokulturologiya til orqali madaniyat, tafakkur va jamiyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni o'rganishda muhim ilmiy yo'nalish hisoblanadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Humboldt V. Til va madaniyat haqida tanlangan asarlar. – Moskva, 1984.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
3. Mahmudov N. Til va madaniyat. – Toshkent: Fan, 2010.
4. Maslova V.A. Lingvokulturologiya. – Moskva: Akademiya, 2004.
5. O'zbek xalq maqollari to'plami. – Toshkent: Sharq, 2005.
6. Safarov Sh. Lingvokulturologiya asoslari. – Toshkent: Akademyashr, 2015.
7. Sapir E. Til. Kirish. – Moskva, 1993.
8. Teliya V.N. Rus frazeologiyasi: semantik, pragmatik va lingvokulturologik jihatlar. – Moskva, 1996.
9. Vorkachev S.G. Lingvokulturologiya. – Moskva: Gnozis, 2001.
10. www.google.scholar.com
11. www.library.uz
12. www.ziyonet.uz